


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



**PSIXIATRIYA VA NARKOLOGIYA KAFEDRASI**

**“BOSH MIYA JAROXATIDAGI RUXIY BUZILISHLAR”  
MAVZUSI BO'YICHA O'QUV USLUBIY QO'LLANMA  
PSIXIATRIYA YUNALISHIDAGI MAGISTRATURA VA KLINIK ORDINATURA  
TALABALARI UCHUN**



TOSHKENT – 2019



‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

«Tasdiklayman»  
TTA ukuv ishlar buyicha  
prorektori  
professor Boymuradov Sh.A.

«    » \_\_\_\_\_ 2018

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
PSIXIATRIYA VA NARKOLOGIYA KAFEDRASI  
“Bosh miya jaroxatidagi ruxiy buzilishlar”

MAVZUSI BO‘YICHA O‘QUV USLUBIY QO‘LLANMA  
PSIXIATRIYA YUNALISHIDAGI MAGISTRATURA VA KLINIK  
ORDINATURA TALABALARI UCHUN

TOSHKENT 2018



Ishlab chiqaruvchi: TTA psixiatriya va narkologiya kafedrası

**Tuzuvchilar:**

Ashurov Z.Sh. – TTA psixiatriya va narkologiya kafedrası mudiri,  
t.f.d., docent.

Shadmanova L.SH. – TTA psixiatriya va narkologiya kafedrası katta  
o'qituvchisi, t.f.n.

Lyan E.M. – TTA psixiatriya va narkologiya kafedrası assistenti

**Taqrizchilar:**

Xodjaeva N.I. – TTA psixiatriya va narkologiya kafedrası professori, t.f.d.

Abdullayeva V. K. – ToshPMI psixiatriya, tibbiy psixologiya va psixoterapiya  
kafedrası mudiri, t.f.d., professor.

O'quv uslubiy qo'llanma psixiatriya yo'nalishidagi magistratura  
talabalari uchun mo'ljallagan.

TTA ilmiy kengashida muxokama qilingan va tasdiqlangan

“ 31 ” may 2019-yil. Bayonnoma № 10

TTA ilmiy kengash kotibi:



G.A. Ismailova

## **Mavzu: Bosh miya jaroxatidagi ruxiy buzilishlar**

### **1. Mashgulot utkazish joyi, jixozlar**

- psixiatriya va narkologiya kafedresi, shaxar klinik ruxiy kasalliklar shifoxonasi
- kompyuter, klinik material, tarkatma material.

### **2. Mavzuni urganish davomiyligi**

Soatlar mikdori -30

### **3. Mashgulot maksadi.**

- Bosh miya jaroxatidagi ruxiy buzilishlar xakidagi tushunchani umumiy shakllantirish
- bosh miya jaroxatidagi ruxiy faoliyat buzilishlarini aniklash va tushuncha berish
- bosh miya jaroxatidagi ruxiy faoliyat buzilishlari simptomlarini klinik manzarasi buyicha bilimlarni shakllantirish
- bemorni klinik xolatini taxlil kilishni, tashxis kuyishni shakllantirish;

### **Vazifalar**

#### **Talaba bilishi kerak:**

- bosh miya jaroxatidagi ruxiy faoliyat buzilishlarini
- bosh miya jaroxatidagi ruxiy faoliyat buzilishlari rivojlanishiga olib keluvchi omillarni
- simptomlarni klinik manzarasini
- bosh miya jaroxatidagi ruxiy faoliyat buzilishlari sabablarini;

#### **Talaba bajara olishi kerak:**

Amaliy kunikmalarni bajarishni: kurik, bemordan surab surishtirishni, ruxiy xolat va anamnez yozishni, kurik paytida bemorni xolatiga boglik xoldagi chora-tadbirlarni aniklashni.

### **4. Motivatsiya**

Ruxiy buzilishlar tibbiyotni muxim kismi xisoblanib, bunda ular jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammoni aks etiradi. Zamonaviy shart-sharoitlarda ekzogen ruxiy buzilishlar orasida bosh miya jaroxati alkogolizmdan sung ikkinchi urinni egallaydi. Bosh miya jaroxatidan sung bevosita kelib chikuvchi ruxiy buzilishlarni



uchrash mikdori jaroxat sharoitiga bog'lik. Turli xil omillarni ta'sir qilishi bosh miya jaroxati buzilishlarini turli davrlarida uchrovichi noodatiy polimorfizmga olib keladi: bular umummiya va maxalliy buzilishlar, ruxiy, vestibulyar, vegetativ, vazomotor va xarakat buzilishlari. SHuning uchun ruxiy kasalliklarni, ularni turli xil shakllarini tashxislash uchun tulik xajm va kerakli darajadagi kunikmalarga ega bulgan mutaxassislariga extiyoj oshadi, bu polipragmaziya dan uzokrok yurishga olib keladi va bu mutaxassislar baxosini oshiradi

## 5. Fanlar orasidagi va fanlar ichidagi bog'likliklar

Ushbu mavzuni ukitishda talabalarni terapiya dan, psixiatriya dan va nevrologiya dan olgan bilimlariga tayaniladi. Mashg'ulot davomida olingan bilimlar terapiya da, reanimatologiya da va boshka klinik soxalarda, keyinchalik psixoterapiya va psixofarmakoterapiya da foydalaniladi.

## 6. Mashg'ulot mazmuni

### 6.1. Nazariy kism

Bosh miya jaroxati — kalla va kalla ichi moddalarini mexanik zararlanishi (bosh miya parenximasini, miya pardalarini, kon tomirlarini, bosh miya nervlarini).

### Tarkalishi va tasnifi

Bosh miya jaroxati odamni xajm jaroxatli zararlanishini 40% ni tashkil etadi. [Babchin A.I. va b., 1995]. Kupincha u eng kup mexnatga layokatli yoshda, asosan erkaklarda uchraydi. Jaroxat olgan keksa kishilar orasida ayollar kupchilikni tashkil etadi, yosh bolalar orasida kupchilikni ugil bolalar tashkil etadi. Bosh miya jaroxati turli xil okibatlar va asoratlarga ega. Likvorodinamik buzilishlar orasida kupincha gidrotsefaliya uchraydi. U serebrospinal suyuklikni produksiyasi va rezorbsiyasi buzilishi okibatida, likvor utkazuvchi yullarni okklyuziyasi natijasida kelib chikadi. Tez-tez yiringli yallig'lanuvchi asoratlar-yiringli meningit, ensefalit va miya absessi kuzatiladi, bular kupincha miyani teshib utuvchi zararlanishida [Xaritonova K.I., 1994] yoki ensefalit okibatida rivojlanadi [Verxovskiy A.I., Xilko V.A., 1994].

Uzok vakt xushni yukolishini tiklanishi kiyin buladi, ba'zida muvaffakiyatsiz buladi. Bunda kupincha mexnatga layokatli shaxs faol xayotdan

chetlashishga majbur buladi. Koma, uzok davom etuvchi bosh miya jaroxatlarda terapevtik chora-tadbirlar majmuasi, ruxiy tekshirish va davolash muxim urin egallaydi. Jaroxat bilan boglik ruxiy buzilishlar jaroxat xarakteriga, jaroxat olgan paytdagi shart-sharoitlarga, premorbid vaziyatga boglik buladi. Bosh miya jaroxati yopik va ochik buladi. Kallani yopik jaroxatida yumshok parda butunligi buzilmaydi va berkliligi saklanadi, kalla jaroxati teshib utuvchi va teshib utmaydigan buladi: teshib ututmaydigan miya jaroxatida fakat yumshok tukimalar va kalla suyagi butunligi buziladi va teshib utuvchida miyani kattik pardasi va miya moddasi zararlanishi kuzatiladi. YOpik bosh miya jaroxati aseptik koladi, ochik bosh miya jaroxati infeksiya bilan asoratlanishi mumkin.

YOpik bosh miya jaroxati tasnifida ajratiladi:

- ✓ kommotsiya – bosh miya chaykalishi
- ✓ kontuziya – bosh miya lat eyishi va portlash tulkini jaroxati;

Bosh miya jaroxatidagi ruxiy buzilishlar deyarli xamma bemorlarda uchraydi va ularni spektri juda keng. Bosh miya jaroxatidagi psixopatologiyani kup kismini turli darajadagi ong buzilishlari, shuningdek astenik xolatlar egallaydi. Bundan tashkari produktiv ruxiy buzilishlar va defitsitar buzilishlar rivojlanishi mumkin.

#### **Bosh miya jaroxatlarining ogirlik darajasi buyicha tasnifi**

Psixiatrik amaliyotda bosh miya jaroxatlarini ogirlik darajasi buyicha ajratish axamiyatga ega. **Engil jaroxat** kommotsiyada kuzatiladi; xush yukolishi bir necha dakikagacha davom etishi mumkin (boshlagich davri) retrograd amneziya kuzatilmaydi yoki jaroxatgacha bulgan bir necha dakikani egallaydi, utkir davri bir sutkagacha davom etadi, xush buzilishi obnubilyasiyadan ogir bulmaydi. Bosh miya jaroxatini **urta ogir darajasida** xush bir necha dakikadan bir necha soatgacha yukoladi, retrograd amneziya jaroxatgacha bulgan bir xaftani egallashi mumkin, utkir davri bir necha kun, kechki davrida serebrasteniya va boshka ruxiy buzilishlar kuzatilishi mumkin. **Ogir jaroxat** kontuziyada kuzatiladi, xush bir necha soatdan bir necha kungacha yukoladi- komatoz xolat, xushni tiklanishi uzok chuziladi, kupincha utkir axlokiy psixozlar, bir xaftadan kup bulgan retrograd amneziya, anterograd amneziya, kechki davrida psixoorganik sindrom kuzatiladi.



## Etiologiyasi va patogenezi

Kasallikni asosiy sababi – bosh miyani chaykalishi, lat eyishi yoki bosilishi kurinishidagi zararlanishi xisoblanadi. Birinchi asosiy patogenetik omil xujayradagi patomorfologik omil xisoblanadi, shu bilan birga jaroxatga nisbatan miyani ximoya reaksiyasi xam muxim rol uynaydi; lat eyishda – miya moddasini makrotuzilishli zararlanishi – gemorragiyalar, destruksiya, subaraxnoidal kon kuyulish, miya asosini va gumbaz suyagini sinishi, miya bukishi va shishishi kuzatiladi; miyani bosilishida gemorragiyalar – birlamchi (zarba tekkan joyda rivojlanadi), chuzilgan (jaroxatdan bir necha vaktndan sung) yoki kechikkan (bosh miya kon tomirlari anevrizmasini jroxatli yorilishi) turlari uchraydi. Bosh miya jaroxatini klinik belgilarini tushunishda neyromorfologik uzgarishlar katta axamiyatga ega. Jaroxat ogiriligiga karab miyadagi makroskopik va mikroskopik uzgarishlar turli xil darajada ifodalanishi mumkin – miyani unchalik katta bulmagan shishishidan va nuktali kon kuyulishlardan tortib katta siljib zararlanishlargacha, yorilishlargacha, kallaga va atrof tukimalarga kon kuyulishlargacha kuzatilishi mumkin. Bosh miya jaroxatining utkir yoki boshlangich davrida vafot etgan shaxslarni miyasini makro va mikroskopik tekshirganda turli xil kattalikdagi va tarkalganlikdagi subaraxnoidal va miya ichi kon kuyulishlari aniklanadi. Bunda doimiy miya shishi va bukishi aniklanadi.

Jaroxatni utkir davrida mikroskopik asab xajayralarida utkir uzgarishlar (sitoplazma bukishi, xromatoliz, kariotsitoliz va b) kuzatiladi, zararlangan soxa atrofida reaktiv glioz buladi. Jaroxatda demielinizatsiya jarayoni katta axamiyatga ega, fragmentlangan mielin parda lipoid tuzilmaga aylanadi. Bunday xollarda fagotsitoz kuzatiladi. Mikroglia xuddi yalliglanish jarayonidek zararlanish tomonga karab xarakatlanadi, bunda xujayra gipertrofiyalangan usimtali va usimtalarsiz globoz shakllarga kiradi. Fagotsitlanishda koldik mielin tuzilmalar lipoid granulyar xujayralar xosil kiladi, ular kon tomirlarga va perivaskulyar bushliklarga migratsiyalanadi. Glial xujayralar chandik xosil bulishda katnashadi.

Bosh miya jaroxatini kechki davrida mikroskopik jixatdan surunkali miya shishi, kam xollarda ichki va tashki gidrotsefaliya aniklanadi. Miya asosida

subaraxnoidal kistalar uchraydi. Mikroskopik jihatdan surunkali jaroxatli uzgarishlarda asab xujayralari tanasi va usimtarini burishib kolishi, usimtalarni kayrilib kolishi, yadro destruksiyasi va xujayrani butunligicha yukolishi kuzatiladi. YUkorida kayd etilgan reaksiyada gliyalar bulmasligi mumkin. Glial xujayralarning kupchiligini chandik soxasida kurish mumkin, astrotsitlar usimtalari baʼzida zich tur xasil kiladi (glial chandik). SHu bilan birga miya pardasi fibrozi, baʼzida maxalliy miya atrofiyasi kuzatiladi.

Jaroxatdan keyingi xolatga xos bulgan patologoanatomik uzgarishlar jaroxatdan keyingi epilepsiyada xam buladi. Bokschilar va xayotida ensefelopatiya bilan kasallanganlar miyasini potologoanatomik tekshirganda (J.Hallervorden 1957 tekshirgan) Alsgeymer kasalligida uchrovchi neyrofibrillalarga uxshab uzgarganligi aniklangan.

Jaroxatda jaroxatni uzidan tashkari bemorni yoshi, bosh miya yarim sharlarini funksional spetsializatsiyasi (asimetriya) va organizmni yosh xususiyatlari axamiyatga ega. Urta yoshli odamni miyasini lat eyishi va bosilishidagi ruxiy buzilishlar orasida anik bogliklik bor. U bolalar va keksa kishilarda kamrok ifodalangan buladi. A.P.Romodanov (1995) ulardagi engil jaroxatni tashxislash kiyinligini taʼkidladi: «Tashxislash kiyinligi sabablari xakikatan xam turlicha, xatto diametral karama karshi xamdir» 60 yoshdan katta odamlarda engil jaroxat ogir umumiy xolat bilan kuzatiladi va tashxis kuyish uchun bu xolatni sababi oydinlashiriladi. Bolalarda esa aksi, stasionarda va undan chikib ketishda jaroxat engil tassavvur etiladi, bunday vaktida tashxislanmagan miya lat eyishi buladi, jaroxatni kechki davrida bu ancha yomon okibatlariga olib keladi».

### **BOSH MIYA JAROXATINI KLINIK BELGILARI**

Bosh miya jaroxati bilan boglik ruxiy buzilishlar boskich bilan shakllanadi, ruxiy sindromlarni polimorfligi bilan xarakterlanadi, ularni rivojlanishi regressiv xisoblanadi.

Bosh miya jaroxatidagi patologik belgilar zararlanish xarakteriga, yuldosh kasalliklarga, yoshga va premorbid vaziyatga boglik buladi. Bosh miya jaroxatini uchta darajasi farklanadi – engil, urta, ogir, va turtinchisi jaroxat jarayonini



rivojlanish davri.

**Boshlangich davri, utkir belgilar davri.** Boshlangich davri xushni noproductiv buzilishi bulib, bevosita jaroxatdan sung rivojlanadi. Xush yukolishini chukurligi va davomiyligi jaroxat ogiriligiga boglik. Boshlangich davrning umummiya simptomlariga komatoz xolatga olib keluvchi nafas, yurak-kon tomir buzilishi, moddalar almashinuvi uzgarishi, nevrologik buzilishlar kiradi. CHaykalish va miyani bosilishida uchokli nevrologik simptomlar aniklanadi.

#### **Bosh miyani jaroxatli zararlanishi okibati davrlari**

<b>Boshlangich (1 haftagacha)</b>	<b>Utkir (1 oygacha)</b>	<b>Kechki (1 yilgacha)</b>	<b>Kechki okibatlar (1 yildan kuprok)</b>
<ul style="list-style-type: none"><li>• Umummiya belgilari</li><li>• Xush yukolish sindromlari. (koma, sopor, karaxtlik)</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>• Apallik sindrom</li><li>• Utkir va utkir osti jaroxatli psixozlar -jaroxatli «nomozshomsimon buzilishlar», deliriy, oneyroid, amensiya</li><li>- Korsakov sindromi</li><li>-Jaroxat va affektiv gallyusinator-vasvasali psixozlar</li><li>• Jrooxatli surdomutizm</li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>• Jaroxatli ensefalopatiya</li><li>• Jaroxatli epilepsiya</li><li>• Jaroxatli demensiya</li><li>• Jaroxatli endoform psixozlar</li></ul>	

**Ong buzilishi** utkir va keyingi davrlarda deyarli xamma bemorlarda kuzatiladi. Utkir davrida asosan ongni uchishi, uni xamma elementlarini yukolishi kuzatiladi. Miyani turli zararlanishiga javoban ikki gurux sindromlar farklanadi. Birinchi guruxga ongni mikdoriy buzilishlari kiradi: karaxtlik, sopor, koma, ikkinchi sindromlar - ongni sifatiy buzilishlari (bunda ongni mazmunini uzgarishi buladi).

bunga ong xiralashuvini kam uchraydigan variantlari va komadan chikkandan sung kayta tiklanadigan ancha kup uchraydigan ongni xiralashuvi kiradi. Ikkinchi gurux sindromlari ongni «dezintegratsiya» sindromlari xam deyiladi.

**Ongni uchish sindromlari.** Karaxtlikni engil darajasi - ongni obnubilyasiyasi, parishonxotirlik, sustlik, kam maxsuldorlik, savollarni va xolatni tushunishni kiyinlashuvi, vazifalarni echish kiyinlashuvi kabi klinik belgilar kuzatiladi.

*Urtacha karaxtlik.* Bunda bemorni xarakatlari, nutki bir muncha sekinlashgan, yuzi kam ifodali, faol dikkatga kobiliyati susaygan buladi. SHifokorni savoli va bemorni javobi urtasidagi tuxtam uzaygan buladi. Bunda bemorni uz shaxsiga va vaziyatga muljali saklangan, vaziyatga, vaktga va joyga bulgan muljalni xatolar bulsa xam tugri baxolaydi. Bunday xolat engil jaroxatdan sung darxol rivojlanadi, bir necha dakika davom etadi, keyin bemor asta-sekin xushiga keladi. Nutki, xarakati tezlashadi. Karaxtlik davrida kisman amneziya kuzatiladi (kongradli), bunda bemorlar ba'zi vokealarni aytib berolmaydi.

*CHukur karaxtlik* jaroxatdan sung kuchayuvchi uykuchanlik, lanjlik, nutk va xarakatni sekinlashishi bilan xarakterlanadi. Bunday xolatda bemor bilan mulokot kilish mumkin, ammo undan javob olish uchun savolni kup marta takrorlash kerak, ba'zida esa sekin urib yoki ogrik bilan ta'sirlantiriladi. Bemorni javobi bir buginli ("xa", "yuk") shaklida buladi. Ba'zida bemorni uz shaxsiga va vaziyatga muljali saklangan bulib, atrof muxitga anik bulmagan muljal, vakt va joyga nisbatan muljali buzilgan buladi. YUzi amimik, xarakatlari darxol sekinlashadi. Bemor ogrik bilan ta'sirlantirilgan joyga kulini chuzadi va ogrikka nisbatan muvozanatlashgan ximoya reaksiyasi saklangan buladi. CHanok a'zolari funksiyasi nazorati susaygan buladi. CHukur karaxtlik davrida kisman amneziya buladi: bemor uzining atrofida sodir bulgan kuppina vokealarni aytib beradi. Ba'zi vokealarni eslab kololmaydi.

*Sopor* — ongni chukur yukolishi, bunda bemor bilan mulokot kilib bulmaydi. Muvozanatlashgan ximoya reaksiyalari saklangan buladi – ogrik, tovush va boshka ta'sirlovchilarga bemor kuzini ochadi. Bemor uykuchan, kuzlari yopik xolda tushakda yotadi, uniuykuchan xolatidan turli turtkilar yordamida chikarish



mumkin. Ammo xushiga kelishi fakat kuzini ochish, ximoya reaksiyalari bilan chegaralanadi. YAkin kishisining ovozigga yuz giperemiyasi va yurak urishining tezlashishi kuzatilishi mumkin. Bemor bunday xolatda ogrik lokalizatsiyasini sezishi mumkin (ta'sirlantirilgan joyga kulini chuzadi). Ta'sirlantirilganda u xarakatsiz yoki avtomatlashgan stereotip xarakteratlar kiladi. Ogrik sezgisiga yuzni azobli mimikasi bilan javob berishi mumkin. Sopor davrida tulik amneziya kuzatiladi (kongradli). Ba'zi bemorlarda fakat bir biriga boglik bulmagan uzuk-yuluk xotira buladi.

*Koma* chukurligiga karab uchta darajasi buladi: urtacha (koma I), chukur (koma II) terminal (koma III). Xamma darajalarida xush tulik yukolgan buladi: bemor ruxiy xayotiga xos bulgan xech narsani ifodalamaydi. Bemorni uygotib bulmaydi, xatto kuchli ta'sirlovchilarga xam kuzini ochmaydi. Komaning xamma darajasida tulik amneziya kuzatiladi. Ammo komaning sanab utilgan variantlari orasida ma'lum bir chegaralar buladi.

**Koma I** da bemorni ogrikka reaksiyasi saklangan buladi. Unga javoban ximoyalovchi bukuvchi va yozuvchi muvozanatlashgan distonik xarakterdagi xarakteratlar buladi. Korachik va shox parda reaksiyalari saklangan. Korin refleksi susaygan, pay reflekslari uzgaruychan buladi. Oral avtomatizm reflekslari va patologik oyok panja reaksiyalari oshgan buladi.

**Koma II** da istalgan tashki ta'sirlovchilarga xam reaksiya bulmaydi, mushak tonusida turli xil uzgarishlar buladi (gormetoniyadan diffuz gipotoniya gacha). Menengial simptomlar kuzatilmaslighi mumkin, kupgina reflekslar bulmaslighi yoki susaygan bulishi mumkin, midriaz bir tomonlama bulishi mumkin, spontan nafas olish va yurak kon tomir faoliyati buzilgan xolda saklangan bulishi mumkin.

**Koma III** da ikki tomonlama fiksatsiyalangan midriaz, diffuz mushak atoniyasi kuzatiladi, vital funksiyalar yakkol buzilgan buladi, nafas ritmi va soni buziladi, apnoe, utkir taxikardiya: kon bosimi kritik darajagacha pasayadi yoki asbob bilan aniklab bulmaydi.

Jaxon neyrotравmatologiyasida xush yukolishini uchta parametr bilan belgilaydigan Glazgo komalar shkalasi keng tarkalgan: kuzni ochish (spontan—

4 ball, o'vozga javob — 3, ogrikka — 2, bulmasligi — 1); nutkli javob (keng muljalli — 5 ballov, alkash-chulkash muljalli — 4, bogliksiz nutk — 3, tushunarsiz nutk — 2, bulmasligi — 1); xarakat javobi (buyrukni bajarish — 6 ball, ogrik lokalizatsiyasi — 5, ogrikdan chetlashish — 4, patologik bukilish — 3, patologik yozilish — 2, bulmasligi — 1). Xushni eng ogir buzilishi 3—7 ball bilan baxolanadi (3 ball — bu koma III, urta ogir — 8—12 ball, engil — 13—15 ball).

**Utkir davri** jaroxatdan sung rivojlanadi, 7 – 10 kun davom etadi. Kupchilik xollarda turli chukurlikdagi va davomiylikdagi xush yukolishi bilan kuzatiladi, xushsiz xolat davomiyligi xolatni ogirligidan darak beradi. Xushni yukolishi baʼzan asosiy simptom bulmasligi mumkin. Fiksatsion amnezianing turli darajasi jaroxatgacha bulgan kichik davrni egallashi mumkin va kuruv xotirasi yomonlashuvi kuzatilishi mumkin. Xotira buzilishining xarakteri va ifodalanganligi jaroxat ogirligini kursatadi. Utkir davrining asosiy simptomi adinamik komponentli asteniyaadir. Kayfiyat tushishi, jizzakilik, kungil bushlilik va somatik shikoyatlar asteniyani kamrok ifodalanganligidan darak beradi. Giperestiziya belgilari buladi. Uykuga ketish buziladi, uyku yuzaki buladi. Vestibulyar buzilishlar doimiy buladi. Tana xolatini birdan uzgartirganda bosh ogrigi kuchayadi. Kungil aynish va kayt kilish mumkin. Konvergensiya sinamasida va kuz olmalari xarakatlantirilganda bemorni boshi aylanadi, u yikiladi – okulostatik fenomen. Utib ketuvchi anizokoriya kuzatilishi mumkin, engil piramidal etishmovchilik chukur refleklar asimetriyasi kurinishida bulishi mumkin. Vazomotor-vegetativ buzilishlar doimiy buladi: bradikardiya ustun bulgan puls labilligi, kon bosimi uynab turishi, terlash va akrotsianozi, yukori sovuk kotish bilan termoregulyasiya buzilishi, dermografizm – turgun va tarkaluvchan, kuchsiz jismoniy zurikishlarda kuchayuvchi yuz kizarishi. Sulak ajralishining kuchayishi yoki ogizda kurish kuzatiladi. Maxalliy nevrologik simptomlar bulishi mumkin, parez va paralich kurinishidagi xarakat buzilishlari, sezuvchanlik tanlab buzilgan buladi. Kalla asosiy suyaklari singanda bosh miya nervlari zararlanish belgilari kuzatiladi – yuz mushaklari yarmini paralichi, kuz xarakati buzilishi – diplopiya, gilaylik. Menengial simptomlar kuzatilishi mumkin



— ensa mushaklari rigidligi. Kernig simptomi. Xush tiklanishi asta sekin buladi. Xush tiklanishi davrida uykuchanlik, umumiy tormozlanish, tushunib bulmaydigan nutk, joyga, vaktga muljal yukligi, xotira susayishi kuzatiladi, amneziya — chegarali tormozlanish dinamikasini tushuntiradi, jaroxatdan sung asta sekin kaytar rivojlanish buladi, keyinchalik ikkinchi signal tizimi tiklanishi boshlanadi.

**1.Utkir, ikkilamchi davri bir necha kundan 1 oygacha.** Utkir davri umummiya siptomlarining regressi bilan xarakterlanadi, kupincha xush tiklanadi. Utkir davrning doimiy belgisi asteniyaadir. Xushiga kelgandan sung bemor bosh o'rigiga, uyku buzilishiga shikoyat kiladi. Asteniya kanchalik ogir bulsa, adinamik komponent shuncha kup ifodalangan buladi va shuncha kam somatik shikoyatlar buladi. Amneziya, kupincha retrograd amneziya buladi, bunda jaroxat laxzasini aks ettiruvchi vaktlarga, ogiriligiga, vakt oraliklariga bulgan vokealarga xotira yukoladi. Ogir jaroxatlarda jaroxatdan keyingi vokea xodisalarga xotira yukoladi (anterograd amneziya). Amneziya natijasida kushma amneziya buladi (retroanterograd). YAna kechikkan (retardirlangan) amneziya uchraydi. Vegetativ buzilishlar gipergidroz, kon bosim labilligi, akrotsianoz, puls ritmi va soni uzgaradi. Vestibulyar buzilish tez-tez uchraydi. Kupchilik xollarda kungil aynish va kayt kilish kuzatiladi. Miyani uchokli zararlanishida nevrologik simptomlar, asosan mikrosimptomlar kuzatiladi, kisman yoki tulik reduksiya bulishi mumkin, ularni kuchayib borishi asoratlanishidan darak beradi — kon kuyulishi, infeksion uchok paydo bulishi. Utkir davrining davomiyligi 1 sutkadan 12 oygacha, kam xollarda chuzilishi mumkin.

Rekonvalessensiya davri (kechki), davomiyligi 1 yilgacha. Buzilgan funksiyalar asta-sekin tulik yoki kisman tiklanadi. Eng engil okibatlari urtacha ifodalangan chalguvchanlik, ixtiyoriy dikkatni turgunsizligi, astenizatsiya, jizzakilik, yiglokilik, vegeto-kon tomir etishmochiligi xisoblanadi. Klinik manzarasida umummiya, samoto-vegetativ va vestibulyar buzilishlar, oshkozon ichak diskeniziyalari, kon bosimini uynab turishi, meteosezuvcchanlik, kuchli terlash ustunlik kiladi. Serebrastenik belgilar tuzilmasida aloxida intellektual-xotira buzilishlari buladi.

Utkir davri psixozlari – odatda birinchi kun rivojlanadi, kam xollarda 2-4 xafta utgandan sung. Psixotik buzilishlar kupincha ogir jaroxatdan sung paydo buladi va patogenetik xolati simptomatik xisoblanadi.

Jaroxatli nomozshomsimon xolat. Xushiga kelgandan sung darxol paydo bulmaydi, keyinrok paydo buladi, bu kushimcha zararlar ta'sirida rivojlanadi. Tunda boshlanishi bunga xos. Ongni torayish darajasi turli xil bulishi mumkin. Tasavvurlari tor doirada buladi va atrof muxitni fragmentar idrok etadi, avtomatik xarakterlik oddiy buladi yoki biroz murakkabrok xarakterliklarni bajara olishi mumkin. Kolgan xamma dunyo guyoki tusiladi, bemor ular bilan alokani yukotadi. Butunligicha idrok etish, muljal, fikrlash mosligi yukoladi. Ambulator avtomatizm shaklida kechadi, trans, auto- va allopsixik muljalni buzilishi, tashki xarakterlik tartibi saklangan xolda kuzatiladi, tez-tez agressiv xarakterlik kuzatiladi. Pseudodement xulki kuzgalish, shu bilan birga gallyusinatsiya, vasvasa kuzatiladi. Ong torayish kuchli ifodalangan bulmasligi mumkin va tulik muljalni buzilishi bilan kuzatilmaydi. Nomozshomsimon xolatni psixomotor tormozlanish bilan kechuvchi variantlari xam bulishi mumkin. Utkir davrida ongni nomozshomsimon buzilishi bir necha marta tugab, kaytalanadi. Nomozshomsimon xolat jaroxatning turli darajasida paydo bulishi mumkin va okibatini ogirrigini kursatmaydi.

Jaroxatli deliriy. Ogir jaroxatda bosh miyaga kon kuyulganda kuzatiladi va miya shishidan darak beradi. Nomozshomsimon xolatdagidek yoki utkir davri boshida, yoki kechrok rivojlanadi. Ongni uchib-uchib buzilishi xarakterli. Kurgina xarakterliklanuvchi saxnasimon kuruv gallyusinatsiyalari tipik xisoblanadi. Kuruv affekti ustunlik kiladi, bemorlar xavfdan uzini ximoya kiladi, kochadi, otilladi. Xissiy xolati uzgaruvchan, kuruv, kungil bushlik, gazablilik eyforiya bilan almashadi. Muljal nafakat vakt va joyga, balki uz shaxsiga xam buziladi. Ong buzilishi chukurligining uzgarib turishi odatda sutkalik davriylikka ega bulmaydi. Gallyusinatsiya mazmuni kupincha tashki xolatni, jaroxat davridagi laxzalarni aks ettiradi. Ba'zida kuzgalishsiz va affektiv buzilishlarsiz kasbiy deliriy kuzatiladi. Deliroz xolatdan chikkandan sung psixotik davrga amneziya buladi. Jaroxatli deliriy ogir okibatni kursatadi, bir necha xafta davom etishi mumkin, kupincha



ulim bilan tugaydi, tez-tez jaroxatli akli zaiflik kuzatiladi. Ijobiy tugovchi okibat kam kuzatiladi.

Jaroxatli amensiya - bir paytning uzida ikki eki undan ortik xoldan toydiruvchi patologik jarayonlar okibati xisoblanadi, masalan, bosh miya jaroxatini kup mikdorda kon kuyilishi, infeksiya, intoksikatsiya bilan kushilib kelishi. Patogenezi buyicha amensiya ruxiy jaraenlar xolatida, chukur sifatiy uzgarishlar natijasida rivojlanuvchi oxirgi xoldan toydiruvchi psixozlarga kiradi. Bemorni tashki kurinishi uchun xarakterli: terisini rangi ersimon-kulrang, murt, yonoklari botgan, kutarilgan xaroratda kuzlarda yaltillash, isitmali kizillik, kuruk va koplamali til, tezlashgan nafas. Umuman amensiya va jaroxatli amensiya dikkatni tulik buzilishi, idrok kilolmaslik va atrofda gilarni tushunolmaslik, fikrlash bogliksizligi (inkogerensiya) bilan xarakterlanadi. Uzini anglashni tulik parchalanishi sodir buladi, xamma tur muljallar buziladi. Bemor bilan mulokotga kirishib bulmaydi, nutki ma'nosiz valdirashdan, buginlardan, aloxida tovushlardan iborat buladi, perseveratsiya kuzatiladi. Xarakat doirasida tartibsizlik, maksadga yunalmaganlik, muvozanatlashmagan xarakatlar buladi, bemorlar nigoxini fiksatsiya kilolmaydi, joyidan tura olmaydi, mustakil ovkatlana olmaydi. Motorli faollik odatda tushak chegarasida buladi, tushakni uziga tortish kabi xarakatlar kiladi, xotik xarakatlar kuzatiladi. Bogliksiz valdirash va xarakat notinchligi bir tuxtab, bir paydo buladi. Negativizm kurinishidagi aloxida patologik buzilish bulishi mumkin - bemor majburiy xarakatga karshilik kursatadi, kulni itarib tashlaydi, substupor va stupor xolati bulishi mumkin. Ba'zida xorieform giperkenizlar kuzatiladi. Amentiv xolatda ulim kuzatilishi mumkin. Salbiy xolatlarda ong tiklangandan sung psixotik xolatga tulik amneziya buladi.

Jaroxatli oneyroid kam uchraydi. Utkir davrning boshlanishida, somnolent xolatida paydo buladi, 1-3 sutka kelgusi retsidivlarsiz davom etadi. Bemorlar stupor yoki substupor xolatida buladi, atrof muxitdan uzilgan buladi, fantastik-xayolsimon gallyusinator kechinmalar bilan tula buladi, bu kechinmalar affekt xususiyatiga mos keladi. Uxshash xollarda jaroxatli oneyroid bilan isterik psixozni

takkoslash kerak. Psixoz tugagandan sung kechinmalarni xammasini eslashi mumkin.

Epileptiform sindrom utkir davrda odatda miyani uchokli jaroxatli zararlanishida kuzatiladi va ekzogen tipli tarkalgan tonik-klonik, parsial yoki abortiv tutkanoklar kuzatiladi. Paroksizmlar soni turlicha bulib, seriyali tutkanoklar yoki epileptik xolat rivojlanishi mumkin. Baʼzida utkir jaroxatli asteniya fonida «de ja vu, ja me vu» fenomeni aniklanadi. Epileptiform sindrom utkir davrida bosh miyani xam ogir, xam engil jaroxatida kuzatilishi mumkin.

Korsakov sindromi oldingi sindromdan katta fark bilan ajralib turadi. U amneziyalardan (fiksatsion, kongradli, retrograd va anterograd) va kupol muljalni buzilishi (uz shaxsiga va atrof muxitga, joyga, vaktga), konfabulyasiya, anozognoziya, vaktni va xolatni idrok kilish buzilishi, shaxslarni bilishni kiyinlashuvidan (notanish kishini tanishdek kuradi) iborat. SHu tufayli bemorda kupol muljal buzilishi buladi, ular uzlarida nima bulganligini, kaerdaligini, atrofni kim urab turganligini aytib berolmaydi, vakt va joyni tushuntirishga xarakat kilmaydi. *Retrograd amneziya* bosh miya jaroxatidan oldingi kunlarni, xaftalarni, oylarni, baʼzida yillarni kamrab oladi. U asosan kattalarda anik ifodalangan buladi, bolalar va keksa kishilarda kiyin aniklanadi. Bu anik koida buyicha kuzatiladi: dastlab yakinda bulib utgan vokealar, keyin uzok davrda bulib utgan vokealar tiklanadi, xamma kelgusi vokealar tabiiy vakt kema-ketligi buyicha tiklanadi – uzokdan yakinga, bevosita bosh miya jaroxatidan oldingi vokealargacha. Bemor kurik paytida uzini kimligini aytib berolmaydi, jaroxatgacha bulgan umrining bir kismi xotiradan tushib koladi. Masalan, kasbi muxandis bulgan bumor institutda ukishini aytishi mumkin.

*Konfabulyasiya* — Korsakov sindromining doimiy tipik elementi. Ular mazmun buyicha kashshoklashgan va juda kam xollarda fantastik buladi. Bu uz uzidan sezilmaydi, shifokorni savoliga javob berganda seziladi. Bemorni javobida xayotini utgan vokealari shakllanadi, bu «kadingi davrga chikish» fenomeni deyiladi. Konfabulyasiyadagi vokealar retrograd amneziya kancha davrni uz ichiga olganiga boglik, agar jaroxatgacha bulgan 6 oy davomida xech narsani eslay



olmasa, bundan oldingi vokealarni aytadi. Ilgari sodir bulgan vokealar xozirgi vaktga kuchadi. *Anozognoziya* atrof-dagilar bemorni yordamga muxtojligini sezmaydi. Bemor bushashgan, kungli bush, xattoki eyforik, kup gapiruvchan buladi. Atrof muxitni, vaktni idrok etishni buzilishi bilan boglik xolda, bemorni xulki birdan uzgaradi, u uzini palatasini topolmaydi, begona krovatga yotib oladi, karshisida turgan xojaxtonani topolmaydi, sutka vaktini bilmaydi, u yoki bu vokealar davomiyligini bilmaydi, adashadi, ertalab bemor tushdan keyingi vakt kelayotganligini aytadi, besh dakikalik suxbat yarim soat yoki undan ortik chuzilgandek tuyuladi. Bemor «endi», «shu erda», «ushanda» va «u erda» degan suzlarni ma'nosini bilmaydi va ishlatmaydi. Atrof-dagilar bemorni tanishidek tuyuladi, kasallik ijobiy kechganda, asta-sekin xozirgi bulib utgan vokea-xodisalarga xotira tiklanadi, retrograd amneziya chegarasi torayadi, uz shaxsiga va vokea-xodisalarga, joyga muljal tiklanadi, keyinchalik vaktga tiklanadi, asta-sekin konfabulyasiya yukoladi va nixoyat eyforiya susaygandan sung, mos xissiyot paydo buladi.

Korsakov sindromida chap tomonlama gemiparez, gemigipesteziya, gemiahopsiya kuzatiladi va *chap tomonlama atrof-muxitli agnoziya* buladi, bu ung tomonlama tepa-chakka-ensa soxasi uchokli patologiyasiga boglik buladi. Asosiy buzilish - faoliyat jarayonida va xar kungi xulkida atrof-muxitni chap yarmini idrok kilolmaydi. Bunday xollarda kupol xissiy-shaxs uzgarishlari buladi - anozognoziya, eyforiya. Suz bilan mulokot kilish tulik buladi. Bemorlar nutki mongotonli, xissiy-oxangli xususiyati ifodalanmagan, yuzi bezovtalik belgilarisiz buladi. Korsakov sindromi va chap tomonlama atrof-muxitli agnoziya bosh miya jaroxatida anik va buzilgan ong orasida bulishi mumkin. U komadan keyin xushni tiklanishi bilan tugallanishi mumkin. [Dobroxotova T.A. va b. 1996].

Jaroxatli surdomutizm (kar-sakovlik) portlash tulkini jaroxatida, xushiga kelgandan sung paydo buladi. Engil shakli 1-3 hafta davom etadi. Ancha ogir shakllarida ifodalangan adinamik asteniya, giperestiziya, kayfiyat tushishi, uyku buzilishi, vegetativ va vestibulyar buzilishlar kuzatiladi. Eshituv asta-sekin tiklanadi, nutk tusatdan uygonganda, xursandchilikda, alkogol mastligida va

boshka xolatlarda tiklanadi. 1 oycha davom etadi, ammo psixogen ta'sirlar bulganda xuddi fiksatsiyalangan isterik reaksiyaga uxshab uzok vakt davom etishi mumkin.

Apallik sindrom ba'zi mualliflar miya jaroxati psixozlarni shakllaridan biriga kiritgan. Detserebratsion rigidlik belgisi uzok chuzilgan koma xolatiga kiradi. Kupincha ulim bilan tugaydi. Ijobiy xollarda asta-sekin xushi tiklanadi va ifodalangan organik nukson shakllanadi.

*Derealizatsion-depersonalizatsion xolat* uz shaxsini «men»ni va atrof muxitni uzgargan xolda idrok etadi, ranglar (masalan «dunyo yashil bulib koladi»), dunyo va vakt kechishi uzgaradi, yassi narsalar bemorga xajmli bulib tuyuladi va teskarisi: xajmli narsalar yassidek tuyuladi; xarakatsizlar xarakatlanayotgandek tuyuladi. Bunday xolatlar bosh miya jaroxati psixopatologiyasida kam uchraydi, xuddi oneyroid singari, asosan ruxiy faoliyati tulik tiklanganda aniklanadi.

*"Kadimgi kechinmalarni alanga olishi"* — uziga xos xolat, bemor real vokealarni idrok etishni tuxtabib, guyoki kadimgi zamonga kaytadi. Uni ongida ma'lum davrdagi (usmirlilik, balogat yoshidagi) vokea-xodisalarni takror boshidan kechiradi. Bemor uzini xozirgi xolatiga tenglashtirmaydi, kadimgi zamondagi kechinmalar tusatdan paydo buladi.

Bunday xolatda ba'zi bemorlar tashki vokea-xodisalarni idrok etadi. SHuning uchun ikki izli ong buladi, kechinmalarni bir kismida utgan vokealar, kiyofalar va vokealar anik ketma-ketlikda kaytariladi, ikkinchi kismida real vokealarni idrok etadi. Bu fenomen jaroxatlarda juda kam uchraydi.

*Tranzitor global amneziya* engil va urtacha ogir bosh miya jaroxatini birinchi klinik belgilaridan bulishi mumkin. Bemorlar xamma narsani esdan chikaradi, uzini ismini, yoshini, ishlash joyini, yashash joyini, ijtimoiy va oilaviy xolatini, xatto vakt va kaerdaligini esdan chikaradi. SHuning uchun bu sindromda «global» suzi ishlatilgan. Kelgusi asosiy belgi - utib ketuvchanlik, tranzitorlik. Xakikiy tranzitor global amneziya 24 soatgacha davom etadi. Bu ba'zida kiska vaktli (soniya, dakika), komadan keyin, bosh miya chaykalishi, engil va urtacha ogir lat eyishda kuzatiladi. Sindromni yakkol ifodalangan davrida bemorlar «men kim?»



men kaerdaman?, menga nima buldi?» kabi savollarni xam bera olmaydi. Bu savollar xamma atrofdegilarga karatilgan buladi: odamlarga, tez yordam shifokorlariga, bulim xodimlariga.

**Affektiv buzilishlar sindromi.** Bosh miya jaroxatidan, asosan uzok komalardan sung bemorlarda xissiy (shaxsiy) xissiyotlar kashshoklashadi, torayadi, premorbid davridagi turli xissiy kechinmalar yukoladi va ularni bipolyarligi buziladi. Kayfiyatida beganjik ustun buladi. Bemor uchun yangi bulgan affekt - kaxr va gazab paydo buladi, bu agressivlik bilan kuzatiladi, ammo bu belgilar okibati ijobiy bulishi mumkin yoki ular xissizlik bilan almashadi. Xissiy buzilishlar paydo bulishi asosan miyani turli kislmlari zararlanishiga boglik. Kupgina xissiy buzilishlar bosh miya yarim sharlarining peshona kismi gematomasi va lat eyishida kuzatiladi. Affektini bipolyarligi ung yarim shar zararlanganda kuzatiladi.

*Aspomanchlik sindromida xissiy paralich* chap peshona soxasiga kon kuyilganda, ogir bosh miya jaroxatida kuzatiladi. U istalgan ruxiy faoliyatga spontan maylni yukolishi bilan xarakterlanadi. Bemorni biror faoliyatga yunaltirish uchun doimiy turtki kerak. Bemorlar xamma narsaga befark, uzini tashabbuskorligi xakida xech narsa gapirmaydi, xech narsa kilmaydi; tushakka siyib kuyadi va unda yotaveradi, yakinlaridan tushakni almashtirishini suramaydi va sodir kilgan ishidan xijolat bulmaydi.

Bu sindrom xafta va oylar davom etishi mumkin. Ijobiy kechganda bemorni biroz faollashtirish mumkin va uni mulokotga kiritish mumkin. Bemorni bir buginli javoblari asta-sekin kengayadi, vaktlar utgandan sung birinchi xissiy reaksiya paydo buladi – bu odatda ta'sirchanlik bulib, shifokor va yakinlarini kat'iy surab surishtirishlariga javob buladi. Ta'sirchanlik davrlari keyinchalik tezlashadi, chuziladi. Bundan sung xijolat chekish reaksiyasi paydo buladi (agar bemor xul tushakda yotsa) u uzining tashabbuskorligi bilan tibbiy xodimlarga, yakinlariga iltimos kilib, murojat kiladi. Ilgari kam xarakat bulgan bulsa, xarakat kila boshlaydi va tushak chegarasida turli xarakatlar kiladi. kulay xolat olish uchun ugiriladi, tumbochkadan suvli piyola oladi, uzi ichadi. Keyin u birinchi bor

turishga, kiyinishga xarakat kiladi, engil turkida faoliyat bajaradi (televizorda kursatuvlar kuradi, atrofdagilar bilan mulokot kiladi, keyinchalik kitob ukiydi). Faol xulk davrlari uzayadi. Befarklik fonida biroz tabassum, ta'sirlanish yoki gazab xurujlari paydo buladi.

*Tormozlanish yukolishi bilan kuzatiluvchi eyforiya sindromi.* Kupincha miyani peshona-bazal kismi lat eganda kuzatiladi. U kiska xushni yukolishidan keyin (bir necha dakika) davomsiz buladi va agar uzok komadan keyin, tiklanish davrida chuzilishi xam mumkin. Bu sindrom uchun begam eyforiya, ruxiy va xarakat tormozlanishining yukligi, anozognoziya xarakterli. Bemorlar xarakatchan, kup gapiruvchan, kuladi, xazil kiladi. SHifokor bilan suxbat chogida masofa saklamaydi. Ruxiy faoliyatda differensiallashmagan xissiet va maksatga yunalgan xulk kupol buziladi. Bu sindrom uzini kasallak xolati va xulkini tushungandan sung tulik kaytadi. Me'yorga utishda ta'sirchan va gazabli bulishi mumkin.

*Gazabli maniya sindromi* odatda bosh miyani peshona-chakka soxasini ikki tomonlama lat eyishida kuzatiladi. U eyforiyaga xurujsimon gazab affekti, kaxrli agressivlik bilan kushilib keladi, yotok tartibiga rioya kilmaydi (bemorlar turishga xarakat kiladi, palatada turib yuradi). Bir necha kun eki xafta davom etadi. Bu sindrom yukolgandan sung bemorlarni xissiy-shaxsiy belgilarida soddalik koladi.

*Gipomaniakal sindrom* neyrotravmatologiyada kam uchraydi. U miyani ung yarim sharini orka kismi lat eganda eki gematomasida uchraydi. U ongni kiska muddatli (2-5 dakika) yukolib, tiklanganida yakkol ifodalangan buladi. Gipomaniya bu xolatda kiska muddatli buladi, u EEG da ustun tuzilmalar faolliigi belgilari bilan kuzatiladi.

*Gamli depressiya* bosh miyani ung yarim sharini (chakka kismini) engil eki urta ogirlikdagi lat eyishidagi aloxida eki oralik davrlari uchun tipik xisoblanadi. U gam-gussa bilan, nutk va xarakat reaksiyalarini sekinlashuvi bilan xarakterlanadi; kupincha xotira, dikkat buzilishiga asteniya kushiladi.

*Vaximali depressiya* odatda katta kishilarda engil va urta ogir bosh miya jaroxatlarida (kupincha chap yarim shar chakka kismi) kuzatiladi, vaxima, xarakat bezovtaligi (ba'zan kuzgalish darajasigacha), sabrsizlik, bemorga va yakinlariga



nimadir sodir bulishi kerakdek xavfli xolatlarni aks ettiruvchi va ximali gaplar gapiradi. Bemorlar uzini xamma yokka otadi, xursinadi, ox tortadi, xamma tomonga sarosimali nazar tashlaydi. Bu depressiya nutkni engil buzilishi, asosan uni tushunishni buzilishi bilan kushilib keladi.

*Apatik depressiya* asosan yarim sharlarni oldingi kismi zararlanganda (lat eganda) kuzatiladi. U gamli befarklik bilan kuzatiladi. Bemorlar nofaol, monotonli, atrofdagilarga, uziga, shifokor bilan mulokot kilishga kizikmaydi, istalgan faoliyatga mayl birdan susayadi. Turli xil xolatlarda xam bir xil koladi - befark, xorgin, tashabbussiz.

**CHegarali ruxiy buzilishlar sindromlari.** Bu sindromni rivojlanishi bosh miya jaroxatini turli davrlari va turlarida kuzatilishi mumkin. Ular kiska muddatli va chuzilgan bulishi mumkin. Agar xush yukolishi engil jaroxatda kiska muddatli bulsa, unda bunday sindromlar kasallikni yagona belgisi bulishi mumkin.

